O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING ANDIJON
VILOYATI BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Turabayev Shokirjon Shodilbekovich
Sana: 14-05-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

206173 - SONLI

Obyekt nomi: Mavjud bino-inshootlarini buzib, o’rniga 5 qavatli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchasi, yuqori qavatlari ofisga moslab qurilishi.	
Buyurtmachi:	ERGASHEV PAZLITDIN YULDASHEVICH
Bosh loyihachi:	"DIZAYN SERVIS PROEKT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	O’z kuchi bilan
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	007512

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon shaxar qurilish va uy-joy kamunal xo’jaligi bo`limining 16.02.2023 yildagi №1703401-94117-sonli ruhsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarma tomonidan 20.04.2023 yilda berilgan hamda 05.06.2023 yilda qayta rasmiylashtirilgan №1703-1703401-65161-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.3. Buyurtmachi Ergashev Pazlitdin Yuldashevich tomonidan 2024 yilda tasdiqlangan loyixa topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi Ergashev Pazlitdin Yuldashevich hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 04.03.2024 yildagi №03/03-2024-sonli shartnoma.

1.5. Bosh loyihachi “Dizayn servis proekt” MChJ hamda yordamchi loyiha tashkiloti “Imkon qurilishrivoj” XK o`rtasida loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 04.03.2024 yildagi №1-sonli shartnoma.

1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 13.02.2024 yildagi №112971976-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari «SIDEL ARCH-BUILDING» MChJ tomonidan 2023 yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C0 li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk -50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C0.

Maydon seysmikligi 9-balli.

3.2. Bosh reja:

Andijon shaxar xududida ilova etilgan bosh reja asosida "Mavjud bino-inshootlarini buzib, o’rniga 5 qavatli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchasi, yuqori qavatlari ofisga moslab" bino va inshootlari qurilishi ob`ekti Andijon viloyati Andijon shaxar Iqbol MFY xududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Andijon shaxar qurilish va uy-joy kamunal xo’jaligi bo`limining 16.02.2023 yildagi №1703401-94117-sonli ruhsatnomasiga asosan 144,0 m2 yer maydoni qurilish ishlari uchun ruxsat berilgan. Bosh reja mavjud tarmoqlar va xudud past-tekisliklarini xisobga olgan xolda ishlangan. Maydon shimol tomondan – qo`shni hudud bilan, sharq tomondan – qo`shni hudud bilan, g’arb tomondan – qo`shni hudud bilan, janub tomondan – qo`shni hudud bilan chegaralangan. Bosh rejada mavjud bino-inshootlarini buzib, o’rniga 5 qavatli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchasi, yuqori qavatlari ofis binosi, avtoturargox joylashgan.

Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihaviy “Savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchasi, yuqori qavatlari ofis” binosi – 5 qavatli, yerto`lali, to’g’ri to`rtburchak shaklda 1 ta blokdan iborat. Binoning rejadagi o`qlari bo`yicha umumiy o’lchami 11,6x11,6 m. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,7m. Bino birinchi qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,5m. Bino ikkinchi va yuqori qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,0m. Binoning ikkinchi, uchinchi va to`rtincha qavatida raxbar xonasi, raxbar yordamchi xonasi, hodimlar xonasi, hojatxona, yo`lak va zina joylashgan. Binoning beshinchi mansard qavatida yordamchi xonalar (ombor) va zina joylashgan.

Ichki pardozlash - devor yuzalari suvoq qilinib, quruq gips qorishmasida tekislanadi so`ngra yuqori sifatli vodoemulsiya bo’yogi bilan bo’yash kerak. Shiftlar quruq gips qorishmasida tekislanadi so`ng yuqori sifatli vodoemulsiya va moyli bo`yoq bilan bo’yaladi.

Tashqi pardozlash - g'isht ustidan sement-qum qorishma bilan suvoq qilinib, so’ng PPJ-120 bazalt tolali plitalarni mahkamlash uchun yelimli qorishma, mustahkamlovchi shishatolali setka qoplansin so’ngra ustidan yelimli gips qorishma, so'ngra fasadni travertin bilan pardozlash ko’zda tutilgan. Sokol yuzasi suvoq qilinib ustidan keramogranit plitka qoplanadi. Deraza va eshiklar - alyumin profildan o’rnatish ko’zda tutilgan. Pol - keramogranit plitkalar, laminat, keramik plitkadan qoplanadi.

Binoning konstruktiv yechimi zilzilaga qarshi belbog'ga o'rnatilgan kompleks konstruksiya, bo'ylama va ko'ndalang devorlar M75 pishgan g'ishtdan qilingan. Bino quyidagi konstruktiv elementlardan iborat: Poydevorlar - B15 sinfli betondan quyma tasmasimon poydevor. Tashqi

va ichki devor – 380mm qalinlikda bo`lib, M75 markali g'ishtdan maxsus yopishishini oshiradigan qo'shimchalar qo'shilgan holda M50 qum va ohak aralasmasi bilan urilib, g’isht urish jarayonida har bir 525mm qadam bilan mustahkamlovchi setkalar bilan mustahkamlangan. Pardadevor – 120mm qalinlikda, M75 markali g'ishtdan maxsus yopishishini oshiradigan qo'shimchalar qo'shilgan holda M50 qum va ohak aralasmasi bilan urilib, g’isht urish jarayonida har bir 525mm qadam bilan mustahkamlovchi setkalar bilan mustahkamlangan. Orayopma va tomyopma - ko’pbo'shliqli temir-beton plitadan Tom izolyatsiyasi - mineral plitalar Y =120-140 kg/m3, qalinligi 50 mm. Pol - keramogranit plitkalar, laminat, keramik plitkadan qoplash ko`zda tutiladi. Ichki eshiklar - alyumin profildan o'rnatilsin. Ichki va tashqi derazalar – alyumin profildan deraza bloklari o'rnatilsin. Tashqi eshiklar – alyumin profil va metaldan o’rnatilsin. Deraza tokchasining tashqi tomoniga polimer qoplamali po'lat rux tunuka o’rnatilsin. Deraza tokchalarning ichki tomoniga plastik materialdan o'rnatilsin. Deraza va eshikning barcha yon tomonlari sement-qum qorishma bilan tekislanib (zatirka), so'ngra gipsli suvoq qilinadi va 2 marta bo'yaladi. Tom qismi - yog'och materiallardan tayyorlangan qovurg'ali polemerlangan profnastilli qalinligi 0,51mmdan bajarilsin. Sokol yuzasi suvoq qilinib ustidan keramogranit plitka qoplanadi. Otmostka-asosi 70 mm shag'al, kengligi 1500 mm, qalinligi 50 mm, beton qorishma bilan bajariladi.

Shuning bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida elektr tarmog`i, ichimlik va oqava suv tarmog`i qismi, muhandislik tarmoqlari ishlarini bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ish turlari.

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta`minlanishi ko‘zda tutilgan.
- II-toifali energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`niy, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ob`ektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasining 20.04.2023 yilda berilgan hamda 05.06.2023 yilda qayta rasmiylashtirilgan №1703-1703401-65161-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’iga muvofiq hal qilinadi:

- Gaz ta'minoti “Hududgaz Andijon” GTF tomonidan 26.02.2023 yilda berilgan №29/27-01-03/22-sonli texnik xulosaga muvofiq;
- Ichimlik suv ta'minoti “Andijon suv ta`minoti” MChJ Andijon shaxar filiali tomonidan 31.08.2023 yilda berilgan №158-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 01.03.2024 yildagi №30-31-yash/253-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 13.02.2024 yildagi №112971976-sonli xulosasi.

5.2. Andijon viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan 2024 yil 28 fevral kuni berilgan №01-02/03-68-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.
5.3. O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limining 05.01.2024 yildagi №03-sonli xati.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra **4 023 357 633** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **51 566 211** so'mga kamaytirilib, **3 971 791 422** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **3 260 942 510** so'm
Asbob-uskunalar: **285 299 831** so'm
QQS: **425 549 081** so'm
6.1. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.
6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.
6.3. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning arxitektura va konstruksiya bo'limi, suv ta'minoti va oqava suv echimlari bo'limi, elektr, isitish va shamollatish bo'limi hamda smeta bo'limi yuzasidan berilgan e'tirozlarni to'liq bartaraf etish lozim.
6.4. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.
6.5. Buyurtmachi Ergashev Pazlitdin Yuldashevichning 16 aprel 2024 yildagi xatida ko`rsatilgan bandlarni bajarilishiga shaxsan tadbirkor mas`ul.
6.6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019 yil 19 avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 9 sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan «Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi» Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.
6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.
6.8. Taqdim etilgan umumiy miqdori 12% QQS bilan 4 023 357 633 so'mni tashqil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 51 566 211 so'm qurilish materiallari narhlari va mashina-mexanizm harajatlari xisobidan kamaytirildi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyixa bo`yicha; “Andijon viloyati Andijon shaxar Iqbol MFY xududida ERGASHEV PAZLITDIN YULDASHEVICH tomonidan "Mavjud bino-inshootlarini buzib, o’rniga 5 qavatli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchasi, yuqori qavatlari ofisga moslab" bino va inshootlari qurilishi”, taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Ajratilgan maydoni	- 144,0 m2;
Qurilish maydoni	- 144,0 m2;
Umumiy maydon	- 783,56 m2;
Qurilish hajmi	- 2628,0 m3;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 28 690,697 odam/soat

Joriy narxdagi tavsiyaviy
(boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan - 3 971 791 422 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNK 1.03.06-13da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

Bosh ekspert: Sadiqov Alisher Odiljonovich.
Ishtirokchi ekspertlar: Asqarov Otabek Fazlidinovich, Raxmatullin Dil’shad Xamzayevich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Muydinjonov Abbosbek Baxodirovich